

Journal of Social Research in Uzbekistan**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>

**INTERNAL AND EXTERNAL FACTORS OF TALIBAN ORIGIN****Sukhrob Boronov***Doctor of Philosophy in Political Science (PhD)**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Taliban, CIA, ISI, pashtun, mujahideen, Haqqani network, Blackwater, ISIL, Buraq flight, Durand Line, Talibanism.

Received: 01.06.22**Accepted:** 03.06.22**Published:** 05.06.22

Abstract: This article analyzes the internal and external factors that led to the emergence of the Taliban. It is based on historical methods and scientific evidence as to why the Taliban regained control of Afghanistan. The author's views are also cited on the concept of "Talibanism" and its necessity, which is relevant for research in world political science.

“TOLIBON” KELIB CHIQISHINING ICHKI VA TASHQI OMILLARI**Suhrob Bo‘ronov***Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar. “Tolibon”, CIA, ISI, pushtun, mujohidlar, “Haqqoniylar tarmog‘i”, “Blackwater”, “DOISh”, “Buroq parvozi”, Dyurand chizig‘i, “Tolibonizm”.

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Tolibon” harakatining paydo bo‘lishiga zamin yaratgan ichki va tashqi omillar tahlil etiladi. Unda tarixiylik metodlari va ilmiy dalillar yordamida “Tolibon” kuchlarining Afg‘oniston hokimiyatini qayta egallashi sabablari asoslanadi. Shuningdek, jahon siyosatshunosligiga oid tadqiqotlar uchun dolzarb bo‘lgan “Tolibonizm” konsepsiysi va uning zarurati xususida muallif fikr-mulohazalari keltirib o‘tiladi.

ВНУТРЕННИЕ И ВНЕШНИЕ ФАКТОРЫ ПРОИСХОЖДЕНИЯ ТАЛИБОВ

Суҳроб Боронов

доктор философии по политическим наукам (PhD)

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Талибан, ЦРУ, МВР, пуштуны, моджахеды, Сеть Хаккани, Blackwater, ИГИЛ, “Полет Бурака”, линия Дюранда, Талибанизм.

Аннотация: В данной статье анализируются внутренние и внешние факторы, приведшие к возникновению движения «Талибан». Статья обосновывается на исторических методах и научных доказательствах того, почему талибы смогли повторно взять власть над Афганистаном. Приводятся также взгляды автора на понятие «талибанизм» и его необходимость, что актуально для исследований в мировой политической науке.

KIRISH

Hozirgi davr siyosiy voqeliklarining har qanday muhokamasida afg'on muammosi doimiy e'tibor markazida turibdi. Buning asosiy sabablaridan biri "Tolibon" harakatining Afg'onistonda hokimiyatni qayta qo'lga olishidir. 2021-yil 15-avgustda ushbu harakatning Kobulni egallashi jahon siyosiy xabarlari orasida eng shov-shuvli voqelikka aylandi. "Tolibon" harakatini (TH) tadqiq etishga doir tahlillar ko'p qirrali bo'lib, muammoning u yoki bu jihatlarini o'zida namoyon etadi. Biroq, mazkur harakatni o'rghanishda ikkita eng muhim omillar mavjudki, bu omillar ularning asl kelib chiqishi sabablari, mohiyati haqida yaxlit tasavvur va yaqindan tanishish imkonini beradi. Bundan tashqari, ushbu omillar toliblarning bugungi ta'siri va hokimiyatni qayta egallashi bilan bog'liq savollarga to'laqonli javob berish va kerakli xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

1994-yilda jahon siyosatida yangi "Tolibon" atamasi paydo bo'ldi. Shunday bo'lsa-da, uning tashkil topish jarayoni o'tgan asrning 70-yillariga borib taqaladi. U dastlab Pokistonning Shimoliq'arbiy chegara viloyati va Balujistonda yashaydigan madrasa talabalari, ya'ni sovet-afg'on urushi paytida Pokistondagi pushtunlar yashaydigan hududlarda yetim qolgan afg'on qochoq bolalaridan tarkib topgan diniy-siyosiy harakat sifatida tashkil etilgan.

THning harbiy-siyosiy tus olishi va afg'on siyosiy sahnasida paydo bo'lish ildizlari ichki va tashqi omillar bilan chambarchas bog'liqki, bu haqida bir qator ekspert va siyosiy tahlilchilarning qarashlari orqali batafsil ma'lumot olish mumkin.

Ichki omillar. Sovet qo'shnulari Afg'oniston hududini tark etgach, yangi shakldagi islomiy an'analarga asoslangan davlat va jamiyat qurish zaruriyati dastlabki davrlarda THni mafkuraviy

jihatdan yo‘naltirilishiga olib keldi. Mujohidlar antisovet jihodi davrida qozongan shuhratini kichik guruhlar bilan hokimiyat uchun kurashishi natijasida yo‘qotdi. Afg‘oniston bo‘yicha tarixchi va tadqiqotchi olim Tomas Barfild bu toliblarga ikki yo‘l bilan norozilik yaratishga imkon berganligini qayd etadi: “Birinchidan, toliblar antisovet urushi davrida ishtirok etgan yoshlarni o‘ziga jalb qilib, ularga jihodning yangi turi – Afg‘onistonda islomning “haqiqiy ko‘rinishi”da qatnashish uchun imkoniyat berdi. Islomning “toliboncha” yo‘li tarafdarlari o‘z diniy qarashlarini afg‘on turmush-tarzining yagona yo‘li deb tasavvur qilishadi, chunki ular afg‘on jamiyatidan tashqarida diniy maktablardan saboq olgan talabalardir. Ikkinchidan, toliblar Afg‘onistonning tartibsizlik keng yoyilgan hududlarida yashaydigan norozi aholini o‘z mafkuraviy rejimini asosiy nuqtasi sifatida tanladi”[1]. Dastlabki davrlarda ko‘philik afg‘on siyosiy vakillari toliblarni afg‘on jamiyatida diniy-mafkuraviy o‘zgarishlarni amalga oshirishga qodir kuch sifatida ko‘rganligini anglash mumkin. Jumladan, Abdurashid Do‘stum 1996-yilda Londonga qilgan safari vaqtida Bi Bi Siga bergen intervyusida “Tolibon – bu afg‘on xalqi, bu bizning pushtun birodarlarimiz. Biz xalqimizdan toliblarni ajrata olmaymiz. Ular millatimizning bir qismi”[2], - deb ta’kidlagan. Tabiiyki, bu fikrlar aynan o‘sha paytdagi siyosiy vaziyat uchun taktika sifatida qo‘llangan bo‘lsa-da, bir-biri bilan kurash olib borayotgan tomonlar qarashlarini ifodalashda va TH kelib chiqishining ichki omillarini tahlil etishda muhim ahamiyatga ega. Ichki omillar sirasiga nafaqat diniy-mafkuraviy, balki etnik masalani ham alohida kiritish joiz bo‘ladi. Toliblarning asosiy qismini pushtunlar tashkil etganligi va ularning Afg‘oniston hokimiyatida uzoq vaqt hukmron bo‘lganligi ham ma’lum ma’noda ichki vaziyatga jiddiy ta’sir ko‘rsatar edi. Ammo, toliblar ildizi pushtunlarga borib taqalsa-da, ular umuman pushtunlarning boshqa toifasidan ekanligi vaqt o‘tib ayon bo‘la boshladi. “Tolibon” muammosi bilan shug‘ullangan mualliflaridan biri ahvolni quyidagicha tavsiflaydi: “Bu yigitlar men 1980-yillarda bilgan mujohidlar – o‘z qabila va urug‘i haqida bat afsil hikoya qilishga qodir, tashlab kelgan xo‘jaliklari va vodiysini qo‘msab eslaydigan hamda afg‘onlar tarixidan afsona va rivoyatlar aytib bera oladigan erkaklardan o‘zgacha dunyo edi. Bu yigitlar o‘z vatanini tinchlik vaqtida hech qachon ko‘rmaganlar, Afg‘onistonni bosqinchilarga qarshi yoki o‘z ichidagilarga qarshi urush holatidan boshqa sharoitda ko‘rmaganlar avlodidan edi... Ular hech qanday ildizga va ishga ega bo‘lmagan, behalovat, iqtisodiy jihatdan benavo, o‘zligini zaif anglaydigan aynan urush yetimlari edi”[3]. Pushtunlarning badal (qasos) qonuniga zid ravishda Doktor Najibullohning toliblar tomonidan namoyishkorona osib o‘ldirishi ham shundan shohidlik beradi.

Tashqi omillar. “Tolibon”ning harbiy-siyosiy kuch sifatida maydonga chiqishida tashqi omillarning o‘rni nihoyatda katta. Xususan, “Tolibon” loyihasi AQShning MRB (CIA) va Pokistonning Idoralararo razvedka xizmati (ISI) mahsuli ekanligi borasida e’tiborga molik fikr-mulohazalarni keltirish mumkin. Ushbu masalada ko‘philik siyosatchilar, olimlar va ekspertlarning fikrlari o‘zaro hamohang. Xususan, pokistonlik journalist, “Tolibon” haqida ilk taniqli asar muallifi

Ahmad Rashid o‘z kitobida sovetlarning Afg‘onistondagi ta’siriga qarshi AQSh va Pokiston o‘rtasida tuzilgan kelishuvlar, ISI ofitserlari va “Tolibon” vakillarining o‘zaro aloqalari, Afg‘oniston va mintaqadagi geosiyosiy o‘yinlar haqida batafsil ma’lumotlarni keltiradi[4]. Shuningdek, AQSh prezidentining sobiq milliy xavfsizlik masalalari bo‘yicha maslahatchisi Zbignev Bzejinskiyning fransuz jurnali “Le Nouvel Observateur” bilan intervyusida tan olgan haqiqatlarida ham aynan buning tasdig‘ini ko‘rish mumkin:

“Le Nouvel Observateur: Sovetlar o‘z bosqinini Qo‘shma Shtatlarning maxfiy aralashuviga qarshi kurashish uchun amalga oshirganini ta’kidlab, o‘zlarini oqlaganida bu haqiqat bo‘lsa ham ularga hech kim ishonmagan edi. Bugun bu narsalardan afsuslanmaysizmi?

Zbignev Bzejinskiy: Nimadan afsuslanashim mumkin? Maxfiy amaliyot ajoyib g‘oya bo‘lgan edi. Uning amalga oshishi natijasida ruslar afg‘on tuzog‘iga tushishdi va siz bundan afsuslanishimni istaysizmi? Sovetlar Afg‘oniston chegarasini kesib o‘tishganida men president Karterga shunday yozdim: “Bizda endi SSSRga o‘zimizga tegishli bo‘lgan Vyetnam urushini taqdim etish imkoniyati mavjud”.

Le Nouvel Observateur: Siz, shuningdek, islom fundamentalizmini rag‘batlantirganingizga, bo‘lajak terrorchilarga qurol va maslahat bergenningizga ham afsuslanmaysizmi?

Zbignev Bzejinskiy: Jahon tarixi nuqtai nazaridan nima muhimroq? Toliblar yoki sovet imperiyasining inqirozi? Bir qancha islom mutaassiblarimi yoki Markaziy Yevropaning ozod etilishi va sovuq urushning tugashimi?”[5].

Bundan tashqari, Germaniya mudofaa vazirligining parlamentdagi vakili Andreas fon Byulovning 2002-yil 13-yanvarda “Tagesshpigel” nemiszabon gazetasiga bergan intervyusida ham “Tolibon” harakati Amerika Markaziy razvedka boshqarmasining yordamida tuzilganligi qayd etiladi[6].

Bir qator siyosatshunoslar Pokistonning “Tolibon” bilan aloqalari xususida to‘xtalar ekan, bu borada islom omili alohida o‘rinda turishini ta’kidlashadi. Afg‘oniston bo‘yicha taniqli mahalliy ekspert Abdusamat Haydarovning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: “Tolibonning qa’tiyligi faqat ichki omillar bilan izohlanmaydi. Biz THni ularning mafkuraviy ittifoqchilar – Pokistonning turli radikal islomiy partiyalari tomonidan bo‘lgan tashqi qo‘llab-quvvatlash orqali ko‘rib chiqishimiz kerak. Ular Afg‘oniston hududida “Tolibon” va Al-Qoidaning qolgan qismlariga juda katta ruhiy, siyosiy, ehtimol, boshqa yordamlarni ko‘rsatmoqda”[7]. Bundan tashqari, L.Gudson, A.Tellis[8] kabi xorijlik tahlilchilar asarlari Afg‘onistondagi beqaror vaziyatning “Tolibon” harakati va uning ortida turgan kuchlari bilan bog‘liq jihatlarini atroflicha o‘rganishda e’tiborga molik tadqiqotlar hisoblanadi.

2021-yil 15-avgustda “Tolibon” kuchlarining Kobul hokimiyatini qayta egallashi ham yuqorida qayd etilgan ichki va tashqi omillar bilan bevosita bog‘liq. Garchi ushbu masalada sobiq

Kobul hukumatining korrupsiyaga botgani, davlat boshqaruvida zarur islohotlar olib bormagani va hokazo ichki omillar mavjud bo‘lsa hamki, tashqi kuchlar omili, ayniqsa, AQSh va Pokiston singari kuch markazlarining geostratejik va geosiyosiy maqsadlarining o‘zaro hamohang ekanligi “Tolibon”ning afg‘on siyosiy sahnasini qayta zabit etishida hal etuvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Tabiiyki, bu fikr-mulohazalarimiz bir qator kuzatishlar va tahlillar natijasi hisoblanadi.

AQSh. Amerika harbiy kuchlarining Afg‘onistondan to‘liq olib chiqilishi va Kobulda “Tolibon” hokimiyatini o‘rnatalishi bilan bog‘liq masalalar Vashingtonning afg‘on siyosatida strategiyasi emas, taktikasi o‘zgarayotganini anglatadi. Buning tasdig‘ini keyingi voqealar rivoji ko‘rsatmoqda:

Iqtisodiy ta’sir. Ma’lumotlarga ko‘ra, “Tolibon” hokimiyatga kelganidan so‘ng Afg‘onistonning xorijiy banklardagi qariyb 9,5 mldr dollar zaxirasi Amerika tomonidan muzlatib qo‘yilgan[9]. Bu hozirda gumanitar inqiroz sharoitida qolgan “Tolibon” hukumati uchun AQSh bilan muzokaralar o‘tkazish zaruratini paydo qiladi.

Harbiy ta’sir. Aksariyat tahlilchilar Amerika harbiy kuchlarining Afg‘onistondan chiqib ketishi uning bu mamlakatdagi harbiy ta’sirini kamaytirdi, deb baho berishga moyildirlar. Lekin, aksincha Amerika o‘z harbiy ta’sirini yangi shakllar va vositalar orqali davom ettirayotganini kuzatish mumkin. Jumladan, Amerikalik kongresmen Jim Blanksning ta’kidlashicha, “Tolibon” qo‘l ostida 85 mldr dollarga teng Amerika harbiy qurol-yarog‘lari mavjud[10]. 2021-yilning noyabr oyida “Tolibon” tomonidan o‘tkazilgan yirik harbiy parad videolavhalarida aynan Amerika harbiy texnikalari namoyish etilganidan ham buni anglash mumkin. O‘z navbatida, AQSh Afg‘onistonda o‘z harbiy ta’sirini razvedka xizmati xodimlari, instruktorlar, xususiy harbiy kompaniyalar orqali saqlab qolmoqda. Afg‘onshunos ekspert Aleksandr Knyazevning qayd etishicha, Amerikaning Afg‘onistonda ikki turdagи xususiy harbiy kompaniyalari mavjud. Birinchisi “Blackwater” bo‘lsa, ikkinchisi AQSh mablag‘lari asosida afg‘on siyosiy vakillaridan tuzilgan xususiy harbiy kompaniyalar[11]. E’tiborli jihatni “Blackwater” harbiy kompaniyasining “Tolibon” bilan muzokaralari ancha avval boshlangan edi. Xususan, NBC telekanalida e’lon qilingan xabarda Donald Tramp ma’muriyati Afg‘onistondagi Amerika askarlarini “Blackwater” xususiy harbiy kompaniyasiga almashtirish variantlarini ko‘rib chiqayotgani ma’lum qilinadi[12]. Xabarda prezidentga ushbu taklifni kompaniya asoschisi Erik Prins bildirgani qayd etilgan. “Afghanistan Times” gazetasida chop etilgan xabar esa Afg‘onistonda turli tanqidiy bahs va munozaralarga sabab bo‘ldi. Xabarga ko‘ra, E.Prins Qo‘shma Shtatlar 29-fevral bitimidan keyin “Tolibon” harakati bilan hamkorlik qilishni mo‘ljallagan. Prinsning ta’kidlashicha, bunda “Tolibon” Afg‘onistonda AQSh manfaatlariga qarshi bo‘lgan “DOISH” va boshqa terrorchi guruhlarga qarshi kurashish uchun javobgar bo‘ladi[13]. Jozef Bayden boshqaruvi ham mazkur siyosatni davom ettirmoqda. Shu jihatdan Qo‘shma Shtatlarning Afg‘onistonda strategik muvafaqqiyatsizlikka uchragani haqida so‘z

yuritish ancha bahsli masala hisoblanadi va yuqoridagi jihatlarni jiddiy e'tiborga olishni taqozo etadi.

Pokiston. Bugungi kunda Afg'oniston ichki siyosiy o'yinlarida markaziy rolni ijro etishda Islomobodning asosiy ta'sir ko'rsatuvchi vositasi TH hisoblanadi. E'tibor qaratish joizki, bugungi THning harbiy va siyosiy rahbarlari tarkibi Islomobod razvedka xizmati bilan mustahkam aloqada bo'lgan eski a'zolardan iborat. Harakatning harbiy yetakchisi Mulla Haybatulloh Ohunzoda, Dohadagi siyosiy mahkama rahbari Mulla Abdulg'ani Barodar (hozirda Bosh vazir o'rinosbosari) hamda "Haqqoniy tarmog'i" rahbari Sirojiddin Haqqoniy[14] shular jumlasiga kiradi. 2018-yil 25-oktyabrda Mulla Abdulg'ani Barodarning Pokiston qamoqxonasidan ozod qilinishi[15] va THning Qatardagi Doha siyosiy mahkamasi rahbari sifatida e'lon qilinishi Afg'oniston bilan bog'liq har qanday muzokaralar jarayonida boshqa geosiyosiy doiralar Islomobod bilan hisoblashishi lozim, degan ishorani anglatar edi. Aksariyat mutaxassislar AQSh-Tolibon bitimi Pokiston uchun katta g'alaba ekanini ta'kidlamoqda. Janubiy Osiyo demokratik forumi (SADF) eksperti Zigmfreyd Vulf fikricha, "AQSh-Tolibon" kelishuvi Pokiston va AQSh aloqalarini yaxshilashda Islomobodning diplomatik yutug'i bo'lib, "bugungi "Tolibon" aynan Pokistonning siyosiy, iqtisodiy, harbiy va xalqaro ko'magi bilan avvalgidan ko'ra kuchliroqdir"[16]. Vudro Vilson Xalqaro olimlar markazi katta ilmiy xodimi Maykl Kugilmen qaydlariga ko'ra, Pokiston ushbu kelishuv orqali Afg'oniston tinchlik jarayonlarining yagona mintaqaviy ishtirokchisiga aylanadi[17]. "Tinchlik kelishuvi"ning Pokiston uchun ikkinchi manfaatli jihat, Afg'oniston va mintaqada THning siyosiy kuch sifatida tan olinishidir. Pokiston Tashqi ishlar vaziri Shoh Mahmud Qurayshiyning Pokiston radiosiga bergen intervyusida "AQSh va "Tolibon" o'rtasidagi kelishuv mintaqada rivojlanishning yangi yo'llarini ochadi"[18], deb ma'lum qilishi harakatning aynan mintaqaga doirasidagi muloqotini nazarda tutadi. Bizning nuqtayi nazarimizga ko'ra, toliblarning Afg'oniston hokimiyatiga ikkinchi marotaba kelishi va harbiy-siyosiy ta'sirini ortishi ham Pokiston strategik manfaatlariga har jihatdan to'g'ri keladi.

Islomobod uchun afg'on siyosiy sahnasida "Tolibon" harakatini qo'llab-quvvatlashdan boshqa geosiyosiy rejalar ham ko'zlangan edi. Pokiston siyosatchilari nazdida Markaziy Osiyo bilan savdo-iqtisodiy va transport-kommunikatsiya aloqalarini amaliyotga joriy etilishida parchalangan Afg'oniston asosiy to'siq hisoblanardi. Markaziy Osyoning yoqilg'i-energetika resurslari, ayniqsa, turkman neft va gaz quvurlarini "Tolibon" kuchlari kafolatida Pokistonga olib kelish rejasidir ayni shu maqsadga yo'naltirilgan. 90-yillar boshlarida Pokiston razvedkasi tomonidan ishlab chiqilgan "Buroq parvozi" kodli maxfiy amaliyot "Tolibon" qurolli otryadlari tayanchi bilan Pokistonning Kvetta va Turmanistonning Kushka shaharlarini bog'lovchi transport magistrallarini nazorat qilishni nazarda tutardi[19]. THning bugungi kunda Afg'onistonda hukumat tepasida

bo‘lishi, shuningdek, Pokistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan mintaqaviy iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishga doir muzokaralarini ayni shu omillar bilan izohlash mumkin.

Bizningcha, Afg‘onistonda “Tolibon” hokimiyati va mavjud geosiyosiy voqeliklar holatida mintaqadagi asosiy aktor aynan Pokiston bo‘lib qolmoqda. Tahlillardan ayon bo‘lmoqdaki, yaqin istiqbolda Islomobod oldida quyidagi muhim masalalar turibdi:

- 1) Tolibon hokimiyatining mintaqaviy (imkonli boricha jahon miqyosida) tan olinishi;
- 2) Birorta afg‘on hukumati tomonidan tan olinmagan Dyurand chizig‘ining tan olinishi;
- 3) Afg‘oniston va Pokiston chegarasidagi etnik, (Pushtuniston, Balujiston va hokazo) radikal va terrorchi guruhlarni Islomobod hududiy yaxlitligiga bo‘lgan xavfini kamaytirish (yo‘qotish);
- 4) Markaziy va Janubiy Osiyoni Afg‘oniston orqali bog‘laydigan barcha loyihalarning (temir yo‘l, gaz quvuri va energetika) Islomobod tomonidan (toliblar kafolati ostida) nazorat etilishi;
- 5) Hindistonning mintaqadagi, xususan Afg‘oniston orqali Markaziy Osiyoga yo‘naltirilgan transport loyihalari (Xalqaro Shimol-Janub koridori) va ta’sirini (Xitoy bilan hamkorlikda) tamomila cheklash;
- 6) “Xitoy-Pokiston iqtisodiy koridori”ni tez fursatlarda amaliyatga tadbiq etish.

Shu tariqa, “Tolibon”ning Afg‘onistondagi roli va o‘rnii, uning hokimiyatni qayta qo‘lga olish jarayonlari bevosita tashqi kuchlar geosiyosiy manfaatlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatmoqda.

“Tolibonizm”. Ushbu ibora Afg‘onistonda hokimiyatning “toliboncha” boshqaruv yo‘lini ifodalashda qo‘llaniladi. Uning mohiyati va mafkuraviy qarashlari Indiana universiteti professori Nazif Shahroniy tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Olimning fikriga ko‘ra, “Tolibon”ning diniy maslaklari, “sof” islomiy shariat qoidalari hamda harbiy-qabilaviy da’volarini umumiyligini qilib “Tolibonizm” deb talqin qilish mumkin. Professor N.Shahroniy o‘z maqolasida “Tolibonizm” o‘sishi va uning mahsulini “zamonaviy” afg‘on bufer davlatining murakkab tarixi va toliblarning xorijiy homiylari oldidagi majburiyati asnosida tushunish lozim, deb qayd etadi[20].

XULOSA

Yuqorida keltirilgan tahlillar shundan dalolat bermoqdaki, “Tolibon” harakati asosan tashqi omillar mahsuli hisoblanadi. Ushbu harakat Afg‘oniston hokimiyatini ikkinchi marta egallagach, “Tolibon” boshqaruvining istiqbollari haqida chuqur tahlil qilish, xususan, tarixiylik metodini e’tiborga olish hamda uning paydo bo‘lish ildizlari haqida izchil va kengroq tadqiqotlar olib borish zarurati vujudga kelmoqda. Bu borada “Tolibonizm” konsepsiyasini sinchiklab o‘rganishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bizningcha, zamonaviy afg‘on davlatchiligidida “Tolibonizm” konsepsiyasini nafaqat davlat boshqaruvining “Tolibon” modeli xususiyatlari orqali, balki ularning tashqi dunyo bilan aloqalarga kirishish jarayonlari orqali tadqiq etish o‘rinli bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Thomas Barfield. Afghanistan. A cultural and political history. Princeton University & Oxford, 2010. – P. 256-257.
2. Белокреницкий В., Сикоев Р. Движение Талибан и перспективы Афганистана и Пакистана. – М.: Институт востоковедения РАН, 2014. – С. 19.
3. Фойибназаров Ш. Халқаро терроризм: илдизи, омиллари ва манбалари. – Т.: O'zbekiston, 2013. – Б. 197.
4. Rashid A. Taliban: Islam, Oil, and the New Great Game in Central Asia. London-New York, I.B.Tauris Publishers. 2000. – P. 27, 145-146.
5. Маначинский А.Я. Афганистан среди гор и войн (исследования 2009 года). – М.: Издатель Воробьев А.В., 2015. – С.40-41.
6. Акмалов Ш. “Талибан” ҳаракатининг Афғонистондаги сиёсий жараёнлардаги роли. // Хорижий Шарқ мамлакатлари тарихий жараёнлари ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари. Вазирлик миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари тўплами (Тошкент, 22.05. 2017 й. № 10). – Т.: ТДШИ, 2017. – Б. 93.
7. Khaydarov A. Role of ethno-religious factor in stabilization of internal political situation in Afghanistan and its impact on Central Asia. // K Santhanam, Ramakant Dwivedi. India and Central Asia. Advancing common interest. –New Delhi, 2004. – P. 291.
8. Goodson L.P. Afghanistan's endless war: state failure, regional politics, and the rise of the Taliban. – Seattle: University of Washington Press, 2001; Tellis A.J. Reconciling with the Taliban? Toward an alternative grand strategy in Afghanistan. – Carnegie Endowment for International Peace, Washington, D.C., 2009.
9. Saleha Mohsin. US freezes Afghan central bank's assets of \$9.5bn // Aljazeera, 18 Aug 2021. <https://www.aljazeera.com/economy/2021/8/18/us-freezes-afghan-central-banks-assets-of-9-5bn>
10. Taliban has access to \$85 billion US weapons // Independent TV, <https://www.independent.co.uk/tv/news/taliban-has-access-to-85-billion-us-weapons-v93e11819?amp>
11. Князев А. Война по доверенности // RT на русском, 30 ноября 2021 <https://russian.rt.com/opinion/933565-knyazev-afghanistan-mir>
12. Lee C., Kube C., Lederman J. Officials worry Trump may back Erik Prince plan to privatize war in Afghanistan // NBC News, August 17, 2018. <https://www.nbcnews.com/news/military/officials-worry-trump-may-back-erik-prince-plan-privatize-war-n901401>
13. US offers Blackwater role to Taliban // Afghanistan Times, April 28, 2020. <http://www.afghanistantimes.af/us-offers-blackwater-role-to-taliban/>

14. Maizland L., Laub Z. The Taliban in Afghanistan // Council on Foreign Relations, March 11, 2020. <https://www.cfr.org/backgrounder/taliban-afghanistan>
15. Afghan Taliban founder Mullah Baradar released by Pakistan // Aljazeera, October 25, 2018. <https://www.aljazeera.com/news/2018/10/afghan-taliban-founder-mullah-baradar-released-pakistan-181025093128441.html>
16. Wolf O. S. Does the US-Taliban deal serve Pakistan's interests in Afghanistan? // South Asia Democratic Forum. 6 March, 2020. <https://www.sadf.eu/comment-171-does-the-us-taliban-deal-serve-pakistans-interests-in-afghanistan/>
17. Kugelman M. Will Pakistan Continue to Play a Constructive Role in the Afghan Peace Process? // World politics review, March 9, 2020. <https://www.worldpoliticsreview.com/articles/28586/will-pakistan-continue-to-play-a-constructive-role-in-the-afghanistan-peace-talks>
18. FM to represent Pakistan in signing ceremony of US-Afghan Taliban peace agreement // Radio Pakistan. February 29, 2020. <http://www.radio.gov.pk/29-02-2020/fm-to-represent-pakistan-in-signing-ceremony-of-us-afghan-taliban-peace-agreement>
19. Маначинский А.Я. Афганистан среди гор и войн (исследования 2009 года). – М.: Издатель Воробьев А.В., 2015. – С.56.
20. Shahrani N.M. Taliban and Talibanism in Historical Perspective // The Taliban and the Crisis of Afghanistan edited by Robert D.Crews and Amin Tarzi. – Cambridge, Massachusetts: Havard University Press, 2008. – P.156-157.